



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 28-iyun, № 128 (8751)


Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



JIZZAX VILOYATI YIRIK SANOAT MARKAZIGA AYLANMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyev 27-iyun kuni Jizzax viloyatiga tashrif buyurib, yirik sanoat obyektlari bilan tanishdi, yangi loyihalarga start berdi.



Jizzax viloyatidagi "BYD Uzbekistan Factory" qo'shma korxonasida ilk elektromobillar ishlab chiqarila boshlandi. Davlatimiz rahbari dastlab ushbu innovatsion zavodni kelib ko'rdi.

Bu mamlakatimiz avtosanoatida yangi bosqich, ulkan tarixiy voqea. Mazkur zavod shu yil yanvarda

davlatimiz rahbarining Xitoyga tashrifi chog'ida faoliyat boshlagan edi. Bu qiymati 160 million dollarlik loyihaning birinchi bosqichi bo'lib, yiliga 50 ming dona elektromobil ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Buning uchun qo'shma korxona zamonaviy sanoat infratuzilmasi bilan

ta'minlandi. Qariyb 2 kilometr temir yo'l tortildi. Ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlash uchun butlovchi qismlar ombori, 1 ming 200 ta konteyner sig'imiga ega logistika markazi qurildi.

Zavodga Xitoydan robotlashtirilgan tizimlar va uskunalar keltirib o'rnatilgan. Ishlab chiqarish jarayoni

avtomatlashtirilgan. Elektromobilning geometrik o'lchamlarini yuqori aniqlikda tekshiruvchi laboratoriya tashkil qilingan.

Prezident ushbu imkoniyatlarni ko'zdan kechirdi, xitoylik sheriklar bilan suhbatlashdi.

Hozirda bu yerda "Chazor" va "Song Plus Champion" modellari ishlab

chiqarilmoqda. Shavkat Mirziyoyev konveyerdan chiqqan ilk elektromobilga imzo qo'ydi.

Shu yerda davlatimiz rahbariga ishlab chiqarishni mahalliyashtirish bo'yicha axborot berildi.

Kelgusi yillarda zavodda modellar qatorini kengaytirish rejalashtirilgan.

Qiymati 300 million dollarlik ikkinchi bosqichda elektromobillar sonini yiliga 200 ming donaga, 500 million dollarlik uchinchi bosqichda 500 ming donagacha yetkazish ko'zda tutilgan.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati suratlari.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING IKKINCHI XALQARO MAQOM SAN'ATI ANJUMANINING OCHILISH MAROSIMIDAGI NUTQI

Qadrlri vatandoshlar!
Hurmatli anjuman ishtirokchilari!
Xonimlar va janoblari!

Avvalambor, siz, azizlarni betakror qadriyat va an'analar yurti bo'lgan O'zbekiston zaminida ikkinchi marotaba o'tkazilayotgan Xalqaro maqom san'ati anjumanining ochilishi bilan chin qalbidan muborakbod etaman.

Bugungi tantanamizda UNESCO Bosh konferensiyasi 42-sessiyasi prezidenti Simona Mikulesku, ICESCO Bosh direktori Salim Muhammad al-Malik, TURKSOY Bosh kotibi Sulton Rayev, Turkiy madaniyat va meros fondi prezidenti Aktoti Raimkulova, Turkiy davlatlar Parlament Assambleyasi Bosh kotibi Mehmet Sureyya Er, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Bosh kotibi o'rinbosari Nurlan Seytimov, Turkiya Respublikasi Prezidentining bosh maslahatchisi Yalchin Topchu, Qozog'iston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi Malik Otarbayev, Tojikiston Respublikasi Prezidentining ijtimoiy rivojlanish, madaniyat va jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha yordamchisi Abdullo Rahmonzoda, Qirg'iz Respublikasi madaniyat, axborot, sport va yoshlar siyosati vaziri Oltinbek Maksutov, Ozarbayjon madaniyat vaziri Adil Gabil o'g'li Karimli va boshqa muhtaram mehmonlarimiz ishtirok etayotgani uchun alohida minnatdorlik bildiraman.

Xush kelibsiz O'zbekiston zaminiga!
Qadrlri mehmonlar!

Mazkur anjuman 2018-yilda ko'hna Shahrisabzda o'tkazilgan birinchi xalqaro maqom san'ati festivalining davomi bo'lib, pandemiyadan tufayli vujudga kelgan olti yillik tanaffusdan so'ng barchamizni yangicha ruh va shukuh bilan yana o'ziga chorlamoqda.

Buyuk Ipak yo'li durdonasi – jannatmakon mamlakatimizning gavhari, serviqor tog'lar, yam-yashil o'rmonlar, xalqparvar va oliyjanob insonlar yurti bo'lish betakror Zomin bugun katta san'at bayramiga mezbonlik qilmoqda.

Qadimiy Zomin haqida ko'plab kitoblar, ilmiy tadqiqotlarda batafsil ma'lumotlar berilgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, "Zomin" atamasi "Avesto"da tilga olingan "Zomyod", ya'ni, farovonlik farishtasi degan nom bilan bog'liq va miloddan avvalgi VII-V asrlarga borib taqaladi.

Noyob arxeologik topilmalari, zabardast allomalari bilan jahonga mashhur ushbu hudud ko'p asrlar davomida sivilizatsiya beshiklaridan biri, ilm-fan, san'at va ma'rifat markazi bo'lib kelgan. Jumladan, XII asrning oxiri va XIII asrning birinchi yarmida bu makonda yashab ijod etgan huquqshunos alloma Muhammad ibn Mahmud Ustrushoniy tarixda bolalar huquqlari bo'yicha birinchi keng qamrovli manba – "Bolalar huquqlari kodeksi" ("Jomi' ahkom as-sig'or") nomli noyob asar yaratganini katta faxr va iftixor bilan tilga olamiz.

Boshqacha qilib aytganda, ushbu tarixiy asar bola huquqlari G'arb sivilizatsiyasidan qariyb olti yuz yil muqaddam bugungi O'zbekiston zaminida to'liq o'rganilib, amalga oshirilganini ko'rsatadi.

Bu ko'hna diyor nafaqat beqiyos tabiat mu'jizalarini, shu bilan birga, buyuk ma'naviy xazina bo'lgan xalqimizning boy an'ana va qadriyatlarini, madaniy merosini va folklor namunalari ham saqlab kelayotgan tabarruk zamindir.

Shu o'rinda Jizzax viloyatidan O'zbekiston xalq hozirlari Eson Lutfullayev va Orifxon Hotamov, O'zbekiston san'at arbobi Bahrullo Lutfullayev kabi hayotbaxsh va o'lmas navolari bilan xalqimiz mehrini qozongan atqoli hozirlar, mohir bastakorlar yetishib chiqqanini yodga olishni istar edim.

Muhtaram festival qatnashchilari!
Bizning qadimiy tariximiz, boy madaniyatimiz, azaliy qadriyatlarimizning ramzi bo'lgan maqom san'ati teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an'analari bilan ma'naviy hayotimizda muhim o'rin egallaydi. Maqom – umumbashariy tuyg'ularni avj pardalarda tarannum etadigan nodir san'at turi sifatida ham biz uchun g'oyat qadrlidir.

Shu bilan birga, u o'zida musiqa, she'riyat va raqs san'atini ajoyib tarzda uyg'un etgan yuksak tafakkur va insoniy kamolot gomusidir. Maqom san'ati uchun asosiy mavzu – eng avvalo, shaxs, uning erki va qadri, tinchlik-totuvlik, hamjihatlik va umumbashariy taraqqiyot hisoblanadi.

Bu mumtoz badiiy obida asrlar mobaynida avlodlar o'rtasida ruhiy uzviylikni saqlab, inson ma'naviy olamini boyitib, yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashek ulug' maqsadlarga xizmat qilib kelmogda.

Maqom o'zida xalqning teran ruhiyati, ezgu niyatlari, milliy mentaliteti, son'mas qadriyatlarini mujassam etgan bo'lib, sivilizatsiya taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi.

Musulmon Sharqida Birinchi va Ikkinchi Renessans davrida Maqom san'ati jadal rivojlanib, o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarildi. Xususan, X asrning birinchi yarmida Sharqda

"Muallimi soniy" nomi bilan mashhur bo'lgan Abu Nasr Forobiy o'zining "Katta musiqa kitobi"da musiqa san'atining nazariy va amaliy mezonlarini ul sozi orqali mukammal tartibga keltirgan. Buyuk mutafakkir Muhammad Xorazmiy "Ilmlar kaliti" kitobining musiqaga bag'ishlangan qismida o'sha davrdagi musiqa cholg'ulari haqida aniq ma'lumotlar beradi. Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk allomalimiz esa noyob musiqiy asarlar yaratib, maqom rivojiga beqiyos hissa qo'shganlar.

XX asrda bu an'analarni munosib davom ettirgan Abdurauif Fitrat, Viktor Uspenskiy, Yunus Rajabiy kabi salohiyatli va peshqadam san'atshunos olimlar, Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov, Turg'un Alimatov, Berta Davidova, Fattohxoyn Mamadaliyev, Orif Alimxosumov, Mahmudjon Tojiyboyev singari atqoli va fidoyi ustozlarning unutilmas xizmatlarini hamisha cheksiz hurmat va ehtirom bilan esga olamiz.

Majoziy ma'noda olti azim o'zanga qiyoslanadigan, xalqimiz badiiy tafakkurining beqiyos mahsuli bo'lgan "Shashmaqom" asrlar davomida jahon madaniyat ummonini to'ldirib, uni har tomonlama boyitib kelmogda.

Shu o'rinda mumtoz musiqa san'atining gultioi bo'lgan betakror maqomlarimiz UNESCOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgani va bu uni butun dunyoda keng targ'ib qilish va ommalashtirishga munosib hissa qo'shayotganini ulkan xursandchilik bilan ta'kidlamogchiman.

YUKSAK TAFAKKUR VA INSONIY KAMOLOT QOMUSI

Zomin tumanida
II Xalqaro maqom san'ati
anjumanining ochilish
marosimi bo'lib o'tdi

Buyuk shoir va mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy *"Ey mug'anniy, baski yig'latg'aysen elni bazm aro, Gar Navoiy ohi birla nag'mani soz etkasen"*, deya yozarkan, nafaqat o'zining durdona bitiklariga, balki mug'anniy sozidan taralgan nag'maning inson ruhiyatiga betimsol ta'siriga, buyuk qudratiga ishora qiladi.

Darhaqiqat, xalqimiz dahosi yaratgan musiqiy asarlar, maqom ashulalarimiz azaldan sohir tuyg'ularni, borliq va hayot mohiyati haqidagi o'ylarni, orzu-armonlarni, kelajakdan yorug' umidlarni o'zida ifoda etib, insonlar qalbiga darmon, ruhiga quvvat bo'lgan, ularni yaratuvchanlik, bunyodkorlik, ezigulikka undagan.

Mamlakatimizda bugun ham san'atning ana shunday qudratli kuchidan unumli foydalanish, milliy madaniyatimizni, bebaho qadriyatlarimizni asrab-avaylash, yanada rivojlantirish va targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilmogda.

Jumladan, yurtimizda Xalqaro maqom san'ati anjumanini o'tkazish an'anaviy tarzda yo'lga qo'yilgani ushbu noyob madaniy merosni asrab-avaylash, yanada ommalashtirish, butun dunyoga keng targ'ib etishda muhim ahamiyat kasb etmogda.

Mazkur anjuman ilk bor 2018-yilda ko'hna Shahrisabzda o'tkazilgan edi. Global pandemiya tufayli vujudga kelgan olti yillik tanaffusdan so'ng ushbu san'at bayramining yurtimizda

yanada ko'tarinki ruhda tashkil etilgani qalblarimizni yangicha shukuhga to'ldirmogda.

So'lim Zomin tumanida 27-iyun kuni II Xalqaro maqom san'ati anjumanining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Nufuzli tadbir "O'zbekiston 24" telekanali orqali to'g'ridan-to'g'ri namoyish qilindi.

Anjumaning Jizzax viloyatining Zomin tumanida o'tkazilayotgani bejiz emas. Buyuk Ipak yo'li durdonasi – jannatmonand mamlakatimizning gavhari bo'lgan ushbu hudud ko'p asrlar davomida sivilizatsiya beshiklaridan biri, ilm-fan, san'at va ma'rifat markazi bo'lib kelgan. Bu yerdan topilgan noyob arxeologik yodgorliklar, ko'ksida ulg'aytirgan zabardast allomalarning himmatli asarlari bugun ham keng o'rganilib kelinayotgani so'zimiz isboti. Oliyjanob xalqi san'atni juda sevadi va qadrlaydi.

Ushbu san'at bayrami munosabati bilan purviqor tog'lar qo'yindagi go'zal maskan yanada jozibali ko'rinadi. Ko'rkam bog' va xiyobonlar, nurafshon ko'chalar tarovati, turfa daraxtlari anvoyi gullar ifori kishilarga yanada ko'tarinki kayfiyat bag'ishlaydi.

Anjumanga ko'rilgan puxta tayyorgarlik hududga o'zgacha fayz baxsh etgan. Tadbirlar o'tadigan joyda bir necha katta-kichik sahnalar barpo qilindi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahriining ramziy qo'rg'onlari qad rostladi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

YOSHLAR KUNI MUNOSABATI BILAN YURTIMIZNING FAOL VA TASHABBUSKOR YOSH AVLOD VAKILLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO'G'RSIDA

Mamlakatimizda yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning davlat va jamiyat hayotidagi faolligini oshirish maqsadida o'zining yuksak azmu shijoati, bilim va salohiyati, iste'dod va qobiliyatini namoyon etib, turli sohalarda erishgan yutuqlari bilan Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga, uning shon-shuhratini jahon miqyosida yanada yuksaltirishga munosib hissa qo'shayotgan, el-yurtimizga mehr va sadoqati, namunali xulqi va odobi hamda vatanparvarlik fazilatlari bilan tengdoshlariga har tomonlama

o'rnak bo'lib kelayotgan quyidagi tashabbuskor va yetakchi yoshlarimiz "Kelajak bunyodkori" medali bilan mukofotlansin:

Kuanishbayeva Gulayim Maxambetali qizi – Qoraqalpog' davlat universitetining 2-bosqich talabasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi
Srajatdinov Amanbay Konisbay uli – Nukus shahridagi "Real Innovatsiya NKS" nodavlat ta'lim muassasasi rahbari, Qoraqalpog'iston Respublikasi

(Davomi 2-betda).



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Q A R O R I

«MARD O'G'OLON» DAVLAT MUKOFOTI BILAN TAQDIRLASH TO'G'RSIDA

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda alohida faollik ko'rsatib, o'zining bilim va qobiliyati, intiluvchanligi, tashabbuskorligi va samarali mehnati bilan yurtimiz taraqqiyotini yuksaltirish, jonajon Vatanimizning xalqaro miqyosdagi nufuzini yanada oshirishga munosib hissa qo'shib kelayotgan, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va yuqori salohiyatga ega, xalq manfaati va yurt istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan fidoyi va mard o'g'lonlarimizni munosib rag'batlantirish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

huzuridagi Davlat mukofotlari va geraldika bo'yicha komissiyaning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahriining itiqdorli yigitlarini fan, ta'lim, tibbiyot, madaniyat, san'at, sport, ishlab chiqarish, harbiy xizmat sohalari va huquqni muhofaza qilish organlaridagi faoliyatida erishgan alohida yutuqlari uchun "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan taqdirlash to'g'risidagi takliflari ilovadagi ro'yxatga muvofiq ma'quullansin.

2. "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan taqdirlanganlarga sovrindorlik diplomlari va ko'krak nishonlari tantanali vaziyatda topshirilsin.

(Davomi 2-betda).



YUKSAK TAFAKKUR VA INSONIY KAMOLOT QOMUSI



1 Milliy musiqiy merosimizga oid pannolar, suratlar, zamonaviy monitorlar o'rnatildi. Maqom san'atiga bag'ishlangan turli ko'rgazmalar tayyorlandi. Milliy sozlar, liboslar, hunarmandchilik buyumlari, tasviriy va amaliy san'at asarlari, haykaltaroshlik namunalari, badiiy va hujjatli filmlar, audio va videodisklar, kitoblar, fotosuratlar namoyishi hamda yarmarkalari tashkil etildi.

Festival o'tayotgan Zominsoy majmuasi bayramona bezatilgan. Avji saraton bo'lishiga qaramay, tog'lardan esgan mayin shabada yuzlarni ohista silab, ko'ngillarni ajib hislarga to'ldiradi. Insonlar yuz-ko'zidagi mamnunlik, yal-yal yonayotgan yonoqlar, jahonning turli mintaqalaridan kelgan mehmonlar chehrasidagi xushnudlik, o'zaro samimiy munosabat katta bayram boshlanayotganidan darak beradi.

Nufuzli tadbirning ochilish marosimida deputatlar va senatorlar, hukumat a'zolari, fan, madaniyat, san'at namoyandalari, turli sohalar ilg'orlari, yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy davlatlar elchixonalari va xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari vakillari, dunyoning turli hududlaridan maqom ustalari, san'atshunoslar, xalqaro ekspert va mutaxassislar qatnashdi.

Anjuman ishtirokchilari va tomoshabinlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni qarsaklar bilan kutib oladi.

So'z O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga beriladi.

Davlatimiz rahbari anjuman ishtirokchilari va mehmonlarini qutlar ekan, O'zbekiston zaminida ikkinchi marotaba o'tkazilayotgan mazkur tadbirning ahamiyati, maqom san'atining tarixi, chuqur insonparvarlik ruhi va falsafasi, xalqlar o'rtasida do'stlik rishtalarini mustahkamlash, madaniy muloqotni rivojlantirish hamda yoshlar tarbiyasidagi o'rni haqida to'xtaldi.

Prezidentimiz o'z nutqida

ta'kidlaganidek, bizning qadimiy tariximiz, boy madaniyatimiz, azaliy qadriyatlarimizning ramzi bo'lgan maqom san'ati teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an'analari bilan ma'naviy hayotimizda muhim o'rin egallaydi. Maqom – umumbashariy tuyg'ularni avj pardalarda tarannum etadigan nodir san'at turi sifatida ham biz uchun g'oyat qadrilidi.

Shu bilan birga, u o'zida musiqa, she'riyat va raqs san'atini ajoyib tarzda uyg'un etgan yuksak tafakkur va insoniy kamolot qomusidir. Maqom san'ati uchun asosiy mavzu, eng avvalo, shaxs, uning erki va qadri, tinchlik-totuvlik, hamjihatlik va umumbashariy taraqqiyot hisoblanadi.

Bu mumtoz badiiy obida asrlar mobaynida avlodlar o'rtasida ruhiy uzviylikni saqlab, inson ma'naviy olamini boyitib, yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashdek ulug' maqsadlarga xizmat qilib kelmoqda.

Mumtoz musiqa san'atining gultoji bo'lgan betakror maqomlarimiz UNESCOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Yangi O'zbekistonda barcha sohalar qatori madaniyat va san'atni rivojlantirish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Baxshichilik san'ati, milliy raqslarimiz, xalq hunarmandchiligi, kino, tasviriy va amaliy san'atni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar silsilasida mumtoz merosimiz namunalari bo'lgan maqomlarni asrab-avaylash hamda yanada ommalashtirishga alohida urg'u berilmoqda.

Prezidentimizning 2017-yil 17-noyabrda "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2018-yil 6-apreldagi "Xalqaro maqom san'ati anjumanini o'tkazish to'g'risida"gi qarorlari ushbu jarayonda yangi davrni boshlab berdi. Mazkur hujjatlarda o'zbek maqom san'atini chuqur o'rganib, o'ziga xos ijro maktablari

va an'analarini yangi bosqichda ravnaq toptirish, uning "oltin fondi"ni yaratish va boyitish, xalqaro nufuzini oshirish va keng targ'ib qilish borasida muhim vazifalar belgilandi. Sohada iste'dodli yoshlarni kashf etish, sermahsul ijod qilib kelayotgan bastakor, kompozitor, musiqashunos, xonanda va sozandalarni faol qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Maqomlar xalqimiz o'tmish hayotining ulkan musiqiy solnomasi,

xalqimizni mumtoz ohanglaridan bahramand qilish kabi mas'uliyati vazifalar yuklandi.

Maqomni tinglash orqali yoshlar qalbiga singdirish bog'cha yoshidagi o'g'il-qizlardan boshlandi. Shuningdek, bolalar musiqa va san'at maktablarida "Maqom alifbosi" fani joriy etildi. Pedagogik oliy ta'lim muassasalarining musiqiy ta'lim yo'nalishlarida maqom san'ati maxsus fan sifatida o'qitila boshlandi.

Mumtoz musiqa merosimiz

ko'lami tobora kengayib bormoqda. Xususan, bu galgi anjumanda Osiyo, Yevropa, Shimoliy va Janubiy Amerika, Afrika qit'alarining 80 dan ortiq mamlakatlaridan qariyb 400 nafar mehmonlar qatnashyapti. Ular nafaqat xalqimizning boy madaniy merosi bilan tanishmoqda, balki jonajon Vatanimizning betakror manzillariga sayohat qilish, tarixiy obida va tabarruk qadamjolarimizni ziyorat etish, xalqimizning qadriyat hamda an'analarini o'rganish imkoniga ham ega bo'lmoqda.



desak, adashmagan bo'lamiz. Ushbu badiiy musiqiy durdonalarni o'rganish maxsus tayyorgarlikni talab etadi. To'g'ri, maqomning ilm sifatida muayyan tartibga asoslangan nazariy va amaliy qoidalari shakllangan. Masalan, faqatgina "Shashmaqom"ning tarkibidan 300 ga yaqin tizimlashgan kuy va ashulalar o'rin olgan. Ular xalqimizning hayoti, ma'naviyati va ruhiyatini ifodalovchi san'at namunalaridir. Ushbu bebaho merosni hayotimizga to'la tatbiq etish esa muayyan vaqt, sharoit, mutaxassis talab qilishi muqarrar. Buning uchun yurtimizning har bir hududida mavjud maqomot namunalari haqidagi barcha ma'lumotni to'plash va tashlash asoslanib, ularning ta'limini, amaliyotini va ilmiy o'zlashtirish mezonlarini ishlab chiqish lozim.

Shu bois O'zbek milliy maqom san'ati markazi, Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti tashkil etildi. Yurtimizning har bir hududida namunaviy maqom ansambllari tuzildi. Yangi ansambllar oldiga boy musiqa merosimizni ustozlarga xos, o'tmish an'analari negizida o'zlashtirib, sofligicha ijro etish va

namunalarni notaga olish, mavjud yozuvlarni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish, maqom san'atining ijtimoiy-tarixiy ildizlari, ilmiy-nazariy negizlari, milliy va umumbashariy qadriyatlar bilan bog'liq jihatlarini yurtimiz olimlari va chet ellik mutaxassislar ishtirokida chuqur o'rganilmoqda.

Prezidentimiz bu borada boshlagan va baland marralarni ko'zlagan reja va tadbirlar albatta izchil davom ettirilishini ta'kidladi. Zero, milliy maqom ijrochiligi mumtoz san'atimiz va yuksak madaniyatimizning o'q ildizi bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

Marosimda UNESCO Bosh konferensiyasi 42-sessiyasi prezidenti Simona Mikulesku, ICESCO Bosh direktori Salim Muhammad al-Malik ham so'zga chiqib, ishtirokchilar va mehmonlarni qutladi.

Tadbirda musiqiy dastur namoyishi etildi.

Xalqaro maqom san'ati anjumani ezigulik va gumanizm bayrog'i ostida birlashgan, san'atni butun borlig'i bilan sevadigan barcha ijod ahli uchun, hech shubhasiz, katta bayramdir. Zero, festival

Anjuman keng qamrovli bo'lib, uning doirasida o'tadigan ko'rik-tanlovda ishtirokchilarning chiqishlari xalqaro hay'at tomonidan "Eng yaxshi maqom ansambli", "Eng yaxshi yakkaxon cholg'u ijrochisi" va "Eng yaxshi yakkaxon xonanda" nominatsiyalari bo'yicha baholandi. G'oliblar Tashkiliy qo'mita tomonidan diplom, statuetka va pul mukofotlari bilan taqdirlanadi.

Festival doirasida "Maqom san'atining nazariy va amaliy asoslari: muammo va yechimlar" mavzuidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ham bo'lib o'tadi.

Qisqacha aytganda, ushbu san'at va madaniyat bayrami o'zbek milliy maqom san'atining noyob namunalarni keng targ'ib qilish, uni asrab-avaylash va rivojlantirish, yosh avlod qalbidagi milliy mumtoz san'atimizga hurmat va e'tibor tuyg'ularini kamol toptirish, turli xalqlar o'rtasidagi do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-ma'naviy munosabatlarni doirasini xalqaro miqyosda kengaytirishga xizmat qiladi.

Dilshod KARIMOV
("Xalq so'zi").

Iftixor

NAVO KELUR

O'tkir RAHMAT.

Davruga nay kelur, ud, sato kelur,
Ko'ngil yoniq kelur, dil ado kelur,
Manzili yurakdir, bexato kelur,
Yur, do'stim chiqaylik chaman sayriga,
Olis chorbog'lardan bir navo kelur.

Ishqqa tashna bo'lgan telba havas u,
Ruhimga ruh bergan qutlug' nafas u,
Armonga kishan u, g'amga qafas u,
Bedanayu bulbul sasi emas u,
Eng baland shoxlardan bir navo kelur.

Ko'krakka saodat shamoli tekkan,
Kim bu ohang uchun umrini tikkan,
Kim bu kuy oldida boshini eggan,
Majnun Farhodlar tap tortmay chekkan,
Nolayu ohlardan bir navo kelur.

Tarix qatlaridan baxt – yori ila,
Aslo zavol bilmas gulzori ila,
Ulug'bekning o'chmas dod-zori ila,
Navoiyu Bobur ash'ori ila,
Qalbdagi dog'lardan bir navo kelur.

Asriy orzularni o'zda etgan jam,
"Shashmaqom" da millat ruhi mujassam,
Tovushlar jilosi turfa, muhtasham,
Bu ohang sehdidan yayrar dillar ham,
Eng masrur chog'lardan bir navo kelur.

Maqom xalq dilidir, bir so'z ila soz,
Xojixon, Komiljon el sevgan ovoz,
Yunus Rajabiyilar tartib bergan xos,
Ajoddan avlodga qolguvchi meros,
Dugoh, segohlardan bir navo kelur.

Hur Vatan, baxtli xalq, tinchligu omad,
Ko'ngillar muklida topdi farog'at,
Bugun har istakka, orzuga monand,
Elparvar tilagi bo'lib ijobat,
Purviqor tog'lardan bir navo kelur.

Baxting to'kis bergan Xudoyim chevar,
Yurtim, qadding bugun samoga tegar,
Har bir ko'ngil bo'ldi chin maqomsevar,
Shahrisabzdan to Zominga qadar,
Bugun har yoqlardan bir navo kelur.

Bugun har yoqlardan bir navo kelur...

FRANSIYA KOMPANIYASI SHOHIMARDONGA INVESTITSIYA KIRITADI

Fransiyaning "Montagne et Neige Dyveloppement" kompaniyasi Shohimardonga arqon yo'l va osma ko'priklarni o'z ichiga olgan ommaviy turizm maskani barpo etish bo'yicha amaliy ishga kirishdi. Farg'ona viloyati hokimligida bo'lib o'tgan uchrashuvda loyiha konsepsiyasi taqdim etildi.

Turizm

Aytish joizki, joriy yilning 6-iyun kuni o'tkazilgan muloqotda ushbu loyihani hayotga tatbiq etish istiqbollari muhokama qilingan va uning

konsepsiyasini ishlab chiqishga kelishib olingan edi.

– Bu loyihada arqon yo'li, qiya ko'targich, osma ko'priklari, zamonaviy attraktsionlar va boshqa sayyohlik infratuzilma obyektlari mujassamlashtirilgan, – deydi kompaniyaning hududiy direktori Orxan

Shirin. – Loyihani amalga oshirishda kompaniya tabiat bilan uyg'unlikni ta'minlash hamda oilaviy turizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratayotir. Ayni jihatlarini inobatga olib, loyiha konsepsiyasi mahalliy hamkorlarimiz tavsiyalari asosida ishlab chiqildi.

Uchrashuvda loyihani moliyalashtirish uchun Fransiya taraqqiyot banki hamda Yevropa banklari bilan muzokaralar olib borishga kelishib olindi.

Botir MADIYOROV
("Xalq so'zi").

IT XIZMATLARI YANADA RIVOJLANADI

Shu yilning yanvar – iyun oylarida Sirdaryo viloyatida 19 ta IT-kompaniya IT-parking rezidenti bo'ldi. Ularning 6 tasi IT xizmatlari eksporti bilan shug'ullanuvchi, shu jumladan, 5 tasi xorijiy kapital ishtirokidagi kompaniyalardir.

Intilish

IT-park Sirdaryo viloyati filiali eksportga yo'naltirilgan 6 ta yangi IT-kompaniyani, xususan, ta'sisчилari Malayziya, Estoniya, Janubiy Koreya, Rossiya va Ispaniya mamlakatlaridan bo'lgan xorijiy kapital ishtirokidagi

5 ta kompaniyani rezidentlikka jalb qildi. Kompaniyalar orasida Malayziyaning BPO (business process outsourcing) xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashtirilgan "UPSTREAM BPO" MCHJ va Janubiy Koreyaning dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va texnik xizmat ko'rsatishga ixtisoslashtirilgan "SOFT BRAINS" MCHJ kabi 2 ta

kompaniyani alohida ta'kidlash mumkin.

– Mazkur kompaniyalarning asosiy faoliyati yo'nalishlari IT va BPO xizmatlari, dizayn, dasturiy ta'minot va multimedia ishlab chiqarishdan iborat, – deydi IT-park Sirdaryo viloyati filiali direktori Oybek Anvarov. – Ular tomonidan birinchi yarim yillikda 1 million AQSH dollaridan ortiq qiymatdagi mahsulotlar va xizmatlar xorijiy davlatlarga eksport qilinishi rejalashtirilgan.

Ahmadali SHERNAZAROV
("Xalq so'zi").

REKLAMA

Hurmatli tadbirkorlar va ishbilarmonlar!

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-apreldagi "Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga asosan, "KRYSTAL WATER" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan Toshkent viloyatining Ohangaron shahrida joylashgan Davlat xazinalarini boshqarish qo'mitasiga qarashli "Magnit" davlat muassasasi hududida davlat-xususiy sheriklik asosida qadoqlangan ichimlik suvi ishlab chiqarishni tashkil etish yuzasidan tashabbus qilingan loyiha konsepsiyasi taqdim etilgan.

Ilova qilinayotgan hujjatlar:
1. Qiziqish bildirish shakli;
2. Loyiha konsepsiyasi;
3. Loyiha to'g'risida ma'lumot.

Tenderda qatnashish uchun tadbirkorlar tomonidan qiziqish bildirish uchun so'rov va tender takliflari 2024-yil 5-avgust kuniga qadar Toshkent vaqti bilan 24:00 gacha topshirilishi kerak.

So'rov va tender hujjatlari (takliflar) quyidagi manzillarda qabul qilinadi:

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat xazinalarini boshqarish qo'mitasi.

Manzil: 100084, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Xalqobod ko'chasi, 17- "A" uy.

Elektron pochta: info@udz.uz

Telefon raqami: 71-238-75-93.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.

Manzil: 100017, Toshkent shahri, Istiqlol ko'chasi 29-uy.

Elektron pochta: pppd@imv.uz, Nilufar.Djurabayeva@imv.uz

Telefon raqamlari:

71-203-50-50 (01-927).

(Eslatma! Elektron yuboriladigan fayl yoki fayllarning hajmi 10 MBdan ortiq bo'lmasligi lozim. Shu munosabat bilan fayllarni ixchamlashtirilgan holda yuborishingiz so'raladi yoki qog'oz shaklida taqdim etishingiz mumkin).

"Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunning 17-moddasiga binoan, qiziqish bildirish uchun so'rov va tender takliflari olingan taqdirda vazirlik tomonidan loyihaning xususiy tashabbuskori va qiziqish bildirgan uchinchi tomon ishtirokida xususiy sherikni aniqlash uchun tender o'tkaziladi.

